

TALABALARDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH (TARBIYA FANI MISOLIDA)

Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish va tarbiya fani darslarida bilimlarni o'zlashtirishda tanqidiy fikrlashni pedagogik asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, o'quv jarayoni, aqliy faoliyat, zamonaviy didaktika, tanqidiy fikrlovchi, vaqt, rang-baranglik.

KIRISH

Bugungi tez o'zgaruvchan va murakkab kasbiy landshaftda talabalarni tanlagan kasblarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur ko'nikmalar bilan jihozlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'nikmalar orasida tanqidiy fikrlash analitik fikrlashni, muammolarni hal qilishni va to'g'ri qaror qabul qilishni rivojlantiruvchi asosiy qobiliyat sifatida ajralib turadi. Tanqidiy fikrlashning kasbiy muvaffaqiyatdagi ahamiyatini e'tirof etgan holda, ta'lim tizimining o'quvchilarda ushbu ko'nikmani shakllantirishga e'tiborini kuchaytirish zarurati ortib bormoqda. Ushbu maqola tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga urg'u berish orqali talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish strategiyalarini o'rganishga qaratilgan. Talabalarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun turli fanlar, jumladan, ta'lim, psixologiya va biznes bo'yicha mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqildi. Tahlil professional kontekstlarda tanqidiy fikrlashning muhimligini ta'kidlaydigan asosiy nazariyalar, asoslar va empirik tadqiqotlarni aniqlashga qaratilgan. Bundan tashqari, adabiyotlar tahlili talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali o'qitish strategiyalari, baholash usullari va tadbirlarni o'rganib chiqdi.

Tanqidiy fikrlashning kasbiy muvaffaqiyatdagi roli uning muammolarni hal qilish, innovatsiyalar, moslashuvchanlik va axloqiy qarorlar qabul qilishga ta'sirini o'rganish orqali o'rganildi. Tahlil davomida talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'lim muhiti, o'quv dasturlarini loyihalash, o'qitish metodikasi va texnologiya integratsiyasi kabi omillarning ta'siri ham ko'rib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tanqidiy fikrlash — fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega,

jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish. Tanqidiy fikrlash bu — o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini o‘zi to‘g‘iraydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat‘iy me‘yorlariga rozi bo‘lish va ularni hushyorlik bilan qo‘llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o‘tishni talab qiladi.

Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida grek. fikrlashning „tanqidiy“ shakli sifatida yuritiladi. = kritikos = "tanqid", „baholash“, „imtihon“ va boshqalar. ko‘p ma‘noli so‘zdan kelib chiqqan;bu yerda „tanqid“ tushunchasi kundalik hayotda „ayblash“ ma‘nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma‘nosini bildiradi va „baholash“, „aniqlash“, „hukm qilish“, „ajratish qobiliyati“ kabi ma‘nolarga ega.Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari, shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya‘ni bundan 2500 yil avval Suqrotning o‘qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmuni uchratish mumkin;Suqrot savollarni tekshirishning yangi usulini ixtiro qildi, bu odamlarning bilimga bo‘lgan ishonchini oqilona aniqlashga qodir emasligining zaifligini ko‘rsatdi va bunda Sokratik kinoya ham bor edi.

Tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq eng qadimgi yozuvlar Platon tomonidan yozilgan Suqrot ta‘limotini taqdim etgan dialoglardir.Ular Platonning birinchi dialoglari bo‘lib, Suqrot bir yoki bir nechta suhbatdoshlari bilan axloqiy masalalar, masalan,Suqrotning qamoqdan qochishi to‘g‘ri bo‘ladimi, degan mavzuda gaplashadi. Faylasuf bu masalani o‘ylab, mulohaza yuritadi va shunday xulosaga keladi: qochish uning ustida tutgan barcha narsalarni (qadriyatlarni) buzadi, masalan, Afina qonunlari va Suqrot tinglayman, degan ichki rahbar ovoz. Suqrot tanqidiy haqiqatni aniqlab berdiki, inson bilim va aqlga „hokimiyat“ (obro‘) asosida bog‘liq bo‘lmaydi.U hokimiyat va yuqori lavozim egalari juda sarosimali va mantiqsiz bo‘lishi mumkinligini isbotladi.Suqrotning fikricha, yaxshi hayot kechirish va hayotning qadriga yetish uchun inson tanqidiy savol beruvchi, „surishtiruvchi ruh“ga ega bo‘lishi kerak. U g‘oyalarni e‘tiqodga loyiq deb qabul qilishdan oldin, uni chuqur o‘ylashga undaydigan chuqur savollar berish kerakligini angladi.

Suqrot „dalil izlash, hukm va taxminlarni sinchiklab tekshirish, asosiy tushunchalarni tahlil qilish, nafaqat aytilgan, balki amalga oshirilayotgan ishning mohiyatiga ham kirib borish“ muhimligini belgilab berdi. Uning so‘roq qilish usuli hozirda „Suqrotcha so‘roq“ deb nomlanadi va tanqidiy fikrlashni o‘rgatishning mashhur strategiyasi hisoblanadi.O‘zining so‘rov uslubida Suqrot fikrning ravshanligi va mantiqiy izchillikni ta’kidladi.U odamlarga mantiqsiz fikrlashni fosh qilish yoki ishonchli bilim etishmasligini ko‘rsatish uchun savollar berdi.Suqrotning ta’kidlashicha, hokimiyatga ega bo‘lish hech qanday haqiqiy bilimni bera olmaydi.U

taxminlarni sinchkovlik bilan tekshirib chiqdi va dalillar va asosli mulohazalarga asoslangan ishonchlilikka shubha qilish usulini yaratdi. Platon Sokrat ta'limotini yozib qoldirdi va tanqidiy fikrlash an'anasini davom ettirdi. Arastu va undan keyingi yunon skeptiklari Sokrat ta'limotini mukammallashtirib, tizimli tafakkur va savol-javob orqali voqelikning tashqi ko'rinishini emas, balki asl mohiyatini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Suqrot tanqidiy fikrlash an'ansi uchun kun tartibini belgilab beradi, ya'ni umumiy e'tiqod va taxminlarni aks ettirish va oqilona va mantiqiy e'tiqodlarni izchil dalillar yoki mantiqiy asosga ega bo'lmagan e'tiqodlardan ajratish-ular bizning tabiiy egosentrizmimizga murojaat qiladimi yoki bizning manfaatimizga mos keladimi. Ular qanchalik mos bo'lishidan qat'i nazar, qanchalik qulay va qulay bo'lishidan qat'iy nazar, ularni diqqat bilan ajratib ko'rsatish kerak.

Tanqidiy fikrlash Richard V.Pol tomonidan ikki to'liqinli harakat sifatida tasvirlangan (1994). Tanqidiy fikrlashning „birinchi to'liqini“ ko'pincha „tanqidiy tahlil“, tanqidni o'z ichiga olgan sof, oqilona fikrlash deb ataladi. Uning tafsilotlari unga murojaat qilganlar orasida farq qiladi. Barri K.Beyer (1995) fikriga ko'ra, tanqidiy fikrlash aniq, asosli hukm chiqarishni anglatadi. Tanqidiy fikrlash jarayonida g'oyalar isbotlanishi, to'liq ko'rib chiqilishi va baholanishi kerak. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bo'yicha AQSh Milliy kengashi tanqidiy fikrlashni quyidagicha ta'riflaydi: " kuzatish, tajriba, mulohaza yuritish, mulohazalar yoki muloqot orqali to'plangan yoki hosil qilingan ma'lumotlarni e'tiqod va harakatni (kontseptuallashtirish) boshqaradigan tushunchalarga faol va mohirona aylantirish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish yoki baholashning intellektual, ilg'or jarayoni sifatida aniqlanadi.

Tanqidiy fikrlash masalalarini tadqiq etish bilan ko'plab zamonaviy olimlar, pedagoglar, psixologlar va metodistlar shug'ullanadi. Xususan, A.K.Yan V.V.Davidov, M.G.Davletshin, I.Y.Lerner, A.M.Matyushkin, M.I.Mahmutov, S.Rajabov, D.Shodiyev, E.G'oziyev, A.M.Umronxo'jayev ishlarida muammoli ta'lim tamoyillarida umumlashtirish turlari va ularning tuzilishi, o'quv jarayonini tashkil etish ochib beriladi, tanqidiy fikrlashning tuzilishlari, aqliy faoliyatning umumlashgan usullarini shakllantirish yo'llarini belgilovchi alohida komponentlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'sib kelayotgan yoshlarimizda ham davlatimiz rahbari aytganlaridek, tanqidiy tahlilni yoshligidan o'rgatib boradigan bo'lsak, ushbu talabalar kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bo'lib yetishadi. Tanqidiy fikrlashning ijodiy manbalari qadim zamonlarga borib taqaladi.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya o'ziga xos va mos kadrlarni yetkazib chiqarishga harakat qiladi. Ayni vaqtda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning

tarkibida yetkazilib chiqarilayotgan kadrlar intellektual, ma'naviy-ruxiy, kasbiy sifatlari jixatdan orqada qolishi yoki o'tib ketish xollari ham sodir bo'ladiki, har ikkala holda o'z talabi darajasida ijtimoiylashtirishga harakat qilinadi. Demokratik jamiyatlarda tanqidiy fikrlash jarayonlariga ta'lim mazmuni, maqsadi, vazifalarigina emas, o'qitish qoidalari, usullari va texnologiyalari safarbar etiladi.

Talabalar tanqidiy fikrlashini o'rganishda zamonaviy didaktika o'qish jarayonida ular psixik tanqidiy fikrlashi bilan shug'ullanuvchi ta'lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. Ta'lim tizimida talabalarda tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan metodlardan foydalanadi. Tanqidiy fikrlash nima? Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas.

Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstidan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas. Tanqidiy fikrlash "yakkayu yagona to'g'ri javob"ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;
- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli – tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak;
- har bir talabalarning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalarning o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish, o'quv jarayonida faol ishtirok etish, turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash, o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt-tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordonlar ta'kidlashadiki, o'z fikrlarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash, o'zaro tanqidiy fikrlar almashish, o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish, fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olishni o'rgatishdan iborat. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar

ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Tanqidiy fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik-talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Faollik-tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi.

Tavakkalchilik-erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida "ahmoqona g'oyalar" aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi buni o'quv jarayonining tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalar qadrlangan, o'quvchiyoshlarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni bo'lgan muhitda o'ylash lozimligiga ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash-tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashidir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan holda chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Qimmatlilik-fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalarning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalari g'oyalari mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lgan g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur.

XULOSA

Talabalarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish

jarayonida o‘ta muhim, shuningdek, katta hissa bo‘lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

O‘zaro fikr almashuv-fikrlash jarayoni talabalarning o‘zaro fikr olishuvini ko‘zda tutadi. Talabalarning o‘zaro fikr olishishi ularning bir–biridan o‘rganishdagi o‘rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o‘zlarida bo‘lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo‘lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi. O‘zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlar tizimini so‘zlovchiga zo‘rlab o‘tkazish va boshqa so‘zlovchilarni tuzatib turishdan o‘zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib keng doiradagi munozara oqibatida talabalar o‘zlariga tegishli bo‘lgan g‘oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o‘z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g‘oyalari tizimiga tirkab boradi. Xulosa o‘rnida shu alohida ta’kidlash joizki, axborotlarni chorlash, o‘ylab ko‘rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017-yil 14-yanvar.
2. Беспадко В.П. “Природособразная педагогика”. М., «Народное образование», 2008.
3. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии.-Т.,1999.
4. Абдуллина, О. А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования / О.А. Абдуллина. М.: Просвещение, 1990.
5. Абдуллина, О. А. Педагогическая практика студентов / О.А. Абдуллина, Н. Н. Зарядкина. М.: Просвещение, 1989.
6. Абульханова-Славская, К. А Стратегия жизни / К.А. Абульханова-Славская.- М.: Мысль, 1991.
7. Алексеев, Н. А. О роли методологических знаний в профессиональной подготовке студентов / Н. А. Алексеев // Содержание и методы профессионального воспитания студентов. Тюмень: Изд-во Тюмен. ун-та, 1981.